MARKAZIY OSIYODA XALQ TOMOSHA SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA BADIIY XUSUSIYATLARI

Mirgiyosova Zamira,
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Alimdjanova Nodira

O'zbek xalq tomosha san'ati Markaziy Osiyo hududida shakllangan eng qadimiy madaniy tizimlardan biri bo'lib, xalqning kundalik hayoti, mehnat jarayoni, marosimlar, diniy-axloqiy tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etgan. U faqatgina ko'ngilochar omil emas, balki ijtimoiy munosabatlar, jamiyat tafakkuri, xalq estetik qarashlarining tarixiy aksidir.

Xalq tomosha san'atining rivojlanishi tarixiga nazar solsak uning har bir davrda o'ziga xos jihatlariga duch kelamiz. Masalan, Temuriylar hukumronligi davrida Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda xalq sayillari va tomoshalar ommaviy tus olgani

Ushbu san'at turining ildizlari qadimgi "masxara", "zamzama", "qissaxonlik", shuningdek, turkiy xalqlarda keng tarqalgan marosim o'yinlariga borib taqaladi. Tomosha san'ati o'z ichiga dramatik epizodlar, satirik dialoglar, qo'shiq, raqs, akrobatika, pantomima, kinoya, ramziy personajlar kabi ko'p qatlamli komponentlarni birlashtiradi. Mazkur maktablar keyinchalik milliy teatr, estrada, sirk, sahna raqsi kabi sohalarning shakllanishiga bevosita asos bo'lgan. Tarixiy qatlamlar chuqurlashgan sari tomosha san'ati ikki asosiy yo'nalishga ajralib bordi:

1. Sahnaviy-shakliy tomoshalarga — masxarabozlik, qo'g'irchoq o'yinlari, qiziqchilik, pantomima va boshqalar.

2. Maydoniy-harakat tomoshalariga — dorbozlik, ot o'yin, yog'ochoyoq, arqon tortish, tosh ko'tarishlar.

Bu ikki yo‘nalishning birlashuvi xalq tomosha san’atining tabiatini belgilaydi: drama, harakat, satira, marosim uyg‘unligi. Insonning hissiyoti emas, balki kuzatuvchanligi va ijtimoiy fikri ushbu san’atning negizida turadi. Tomosha san’ati har bir davrda xalqning real muammolari, hayotiy tajribasi va estetik qarashlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettirib kelgan.

Xalq tomosha san’atida harakat — asosiy badiiy vositalardan biri. Dorbozlik, ot o‘yin, yog‘ochoyoq, siltovchi raqslar, arqon bo‘ylab yurish kabi ko‘rinishlar qadimiy harbiy mashqlar, mehnat jarayonlari, jismoniy bellashuvlardan kelib chiqqan. Harakatning ritmik va marosimiy xarakterga ega bo‘lishi ularni tomosha san’atiga olib kirgan.

Yog‘och oyoqni ham muallaqchilikning bir turi desa bo‘ladi. Yog‘och oyoq ijrochining tajribasi va yoshi hisobga olingan holda bir metrdan besh metrgacha bo‘lishi mumkin, deyarli ikki yarim yoki uch metr yog‘och oyoqda raqslar ijro etilgan. Ijrochi qizil yoki zangori mato bilan o‘ralgan va qo‘ng‘iroqlar shodasi osilgan yog‘och oyoqni oyoqlariga bog‘lab olib yurib, sunray yoki chirmanda chalib, sho‘x kuylar ritmida qayroqlar bilan o‘yinga tushgan, yelkasiga bola ko‘tarib davra aylangan, suv to‘la kosani qosqonga qo‘yib chir aylantirgan, og‘izidan olov chiqargan. Masalan, Toshkentning Ko‘kcha dahasida yashagan Rafiq dorboz-qiziqchi xuddi shunday mashhur san’atkorlardan biri bo‘lgan.

Tomosha san’at turlari va bayramlar tarixini tadqiq etishda ham shunday mashaqqatli yo‘ldan yurishga to‘g‘ri keladi. Tarixiy asarlar, zafarnomalar, safar kundaliklari, tazkiralar, adabiy manzumalarda injudek sochilib yotgan ma’lumotlar, lavhalar, devoriy va kitobiy tasvirlarni bir-biriga solishtirib, qiyoslash orqali muayyan davrga xos tomosha turlari haqida umumiy tasavvur hosil qiladi.

Taniqli olim Muhsin Qodirov ham Markaziy Osiyo hududida xalq bayramlari, tomosha can’atining kelib chiqishidan tortib, islom dini o‘rnatilgan davr va ayniqsa, Amir Temur va temuriylar hukmronligiga oid turkum tadqiqot

ishlarini olib borgan. Natijada, sohada o‘ziga xos ilmiy yo‘nalish vujudga keldi. Bu yo‘nalish tomoshashunoslik deb ataldi.

O‘zbekistonda tomosha san’ati turlari asosida nishonlanadigan, bayramlar tarixini jiddiy ilmiy tadqiq etish XX asrda

boshlandi. Uning dastlabki davrlarida etnograflar, folklorshunoslar, yozuvchilar o‘rnak ko‘rsatib, tomosha sanati turlari namunalarini yozib olish va ilmiy o‘rganishga kirishdilar. Millat folklor-etnografiyaning asosi xalq hayoti, marosimlari,

urf-odatlari jamlangan ijrolar odob-ahloq talablari bilan mahkam bog‘liq bo‘lgani sababli ijodiy jamoalar ko‘p hollarda turli sharoitda, faoliyat yuritgan va bir-biriga ta’sir ko‘rsatib, yashab, rivojlanib kelgan.

Milliylik har qachon ham muhim masala ekanligini anglab yetgan Muhsin Qodirov shu yo‘nalishda tadqiqot ishlari olib borishni davom ettirdi va «Tomosha san’ati – o‘tmishdan lavhalar», «Amir Temur va temuriylar davrida tomosha san’atlari», «Navoiy va sahna san’ati» nomli kitoblarini nashr ettirdi.

O‘zbek etnosi tarixini o‘rganishning yangi konsepsiyasi folklor tarixini qayta ko‘rib chiqish; an’anaviy teatr, sirk va raqs san’atlari takomiliga shahar madaniyati va o‘troq aholi ta’sirini alohida ta’kidlash, to‘g‘ri davrlashtirish va har bir davrning o‘ziga xos tendensiyalarini aniqlash; qo‘lyozma manbalarni izlab topib, xalq san’atkorlari repertuari va mahoratiga chuqurroq kirib borish kam o‘rganilgan tomosha san’ti turlari tarixini tiklash kabi vazifalardan iborat. Ushbu vazifalarni bajarishda Muhsin Qodirov tadqiqotlari qo‘l keladi. Ularda Temuriylar saltanati davriga taalluqli eng muhim ma’lumotlar o‘rin olgan.

Tarixiy xronologiya tartibida joylashtirilgan ushbu tadqiqotda ilmiy ta’mirlash uslubi ishga solingan. Bu uslub arxeologik, tarixiy-etnografik, filologik, tasviriy va folklor materiallarini o‘zaro taqqoslash hamda teatrshunoslik nuqtai nazaridan umumlashtirgan va talqin ettan holda muayyan davr tomosha san’atlari, bayramlar haqida aniq tasavvur hosil qildirishdan iborat. Ushbu jarayonda ikki

ilmiy amalga tayanilganini ko‘ramiz. Birinchi interpolyasiya bo‘lib, qo‘shni mamlakatlardagi san’at holati, qiyofasiga qarab, solishtirib, tasavvur hosil qilish. Ikkinchisi retrospeksiya bo‘lib, XX asrda ma’lum bo‘lgan materiallar asosida moziyga qarab ish tutish, tarixan o‘xshash tomoshalar topib, taqqoslash va xulosalar chiqarish.

Olimning maqsadi o‘quvchilarga badiiy madaniyat va ijro san’ati taraqqiy etgan Temuriylar davri tomosha turlari xususida to‘liq tushuncha berishdan iborat bo‘lgan. Gap shundaki, Amir Temur va temuriylar davrida iste’molda bo‘lgan tomosha san’ati turlari xususida maxsus yozilgan asarlar juda oz, borlari ham manbashunoslar tomonidan hali aniqlanmagan va o‘rganilmagan. Shu sababdan yuqorida tilga olingan turli-tuman zafarnoma va sayohatnomalar, adabiy manbalarda uchraydigan ma’lumotlar asosida umumiy manzarani tiklashga to‘g‘ri keladi.

1994 yilda tarixiy voqea sodir bo‘ldi. Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati» asari forsiydan o‘zbek tiliga tarjima qilindi va nashrdan chiqarildi. Garchi maqsad tasavvuf tariqatlaridan bir bo‘lagini tashkil etuvchi javonmardlik, uning dasturi va qoida talablarini uqtirish, ta’riflash bo‘lsa-da, unda tomosha san’atlari turlarining o‘sha zamonlarda keng tarqalgan bir qator yo‘nalishlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar, ta’rif-tavsiflar ham berilgan. Masalan, uning 5 fasl va 13 qismni o‘z ichiga olgan oltinchi bobi ma’rakaga, ma’raka tuzuvchi, tomosha ko‘rsatuvchi maddohlar, qissaxonlar, afsonago‘ylar, dorbozlar, pahlavonlar, toshotarlar, qo‘g‘irchoqbozlar, soqqabozlar, kosa o‘ynatuvchilarga bag‘ishlangan. Tariqatga oid bu asarda tomosha san’atlari va tomoshasozlar haqida so‘z yuritilishiga sabab, aksar javonmardlarning hunarmandlar va san’atkorlar orasidan yetishib chiqqanligidir. Husayn Voiz Koshifiy birinchi galda Xurosonda o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tomosha san’atlari, ularning tartibi, qoidalari xususida fikr yuritadi. Ammo u umumlashtirgan qonun-qoidalar Movarounnahrga ham bevosita taalluqli deb aytish mumkin. Chunki

Xuroson bilan Movarounnahr Amir Temur va temuriy podshohlar davrida bir mamlakat, bir davlatning ikki qismi hisoblangan. Madaniyat, san’at, urf-odat, marosim, bayram, sayil va tomoshalarda Amudaryoning narigi ikki qirg‘og‘i o‘rtasida farqdan ko‘ra umumiylik ko‘proq bo‘lgan.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshlarida islom dini va tasavvuf tariqatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qiroatxonlik, qissaxonlik, voizlik, maddohlik, zikri jahriya, qalandar va darveshlarning yurishlari, sadr samolari kabi o‘ziga xos marosimlar bilan birga dunyo ne’matlari va lazzatlarini kuylovchi, insonni, uning birdamligi, mehr-muruvvati, saxovati, qalbi va tuyg‘ularini ulug‘lovchi bayramlar, o‘yinlar va tomoshalar yetakchilik qilgan. Aynan mana shu ommaviy tarzda o‘tadigan to‘y va bayramlar musiqa va tomosha san’atlarining barcha turlarini qamrab olgan, bor ijrochilarning hammasini jalb etgan hamda shahar va sahro madaniyatlarining bir-biriga yaqinlashuvi uchun qulay sharoitlar yaratib bergan. Tomoshagoh va caylgohlarda o‘tkaziladigan, marosimlarda boshqa tomosha san’tlari qatorida folklor san’ati ham o‘rin olgan.

Kelib chiqishiga ko‘ra qadimiy, keyinroq islom dini va tasavvuf tariqatlari bilan bog‘lanib ketgan zikri samo va sadr yig‘inlari ham teatrlashgan marosimlar jumlasidandir. Ularda o‘nlab mutasavviflar qarsak chalib, bayt aytib, aylanib, chayqalib, o‘ng yonga harakat qilib, Allohga murojaat qilib yohud marhum visolini qumsab o‘z e’tiqod va ehtiroslarini izhor etganlar. Bunday yig‘inlarning yuqori nuqtasi jahr bo‘lib, shu daqiqada tomoshabin qolmaydi, hamma birga ruhiy holatda yashay boshlaydi.

Folklor-etnografik tomoshalar teatrlashtirilib, odatda xalq sayillari va bayramlari, davlat miqyosida o‘tadigan tantanalar munosabatlari bilan uyushtirilib, tarkibida zardushtiylik e’tiqodlaridan kelib chiqqan «Sust xotin», «Xo‘bbim» marosimlaridan tortib allaqachon tomoshaga aylangan bir kunlik shoh marosimigacha uchratish mumkin. Islom diniga aloqador darvesh va qalandarlarning maxsus liboslarda to‘da-to‘da bo‘lib, bayt va qo‘shiq aytib

yurishlari ham o‘ziga xos teatrlashgan namoyishlardir. Ularda san’at hunar bilan shu qadar bog‘lanib ketadiki, ajratish qiyin. Bundan tashqari, zebu ziynatlarni, antiqa buyumlarni, ajoyib hayvon va parrandalarni muxsus joylarda namoyish etish odat tusiga kirgan. Samarqand va Hirotda qurilgan chinnixonalar, Samarqand yaqinidagi qo‘riqxona, Klavixo o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, hayratga tushgan o‘yinchi fillar, oltin olmalar, o‘ynab turgan favvora, duru gavharlardan yasalgan antiqa daraxt, zebu ziynatlar terilgan rastalar, xullas, sharqona did va farosat bilan tikilgan chodirlar chamani, ma’lum tartibda o‘tadigan qabul marosimlari shular jumlasidan. Bunday ko‘rgazma va marosimlarni teatrlashgan deyishimizga sabab shuki, ularda ham tomosha ob’yekti va tomoshabin bor. Tomoshabin xushnud bo‘ladi, dili yayraydi, ayrim hollarda muloqotga kirishadi. Bu davrda qadimiy zamonlardan o‘tib kelayotgan bir kunlik shoh marosimi ko‘p ishlatilgan. Odatga ko‘ra, qonuniy shoh bir kunga o‘z o‘rnini fuqorolardan biriga bo‘shatib, o‘zi uning o‘rniga fuqaro bo‘lib, qalbaki shoh amru farmonini bajaradi. Bir kunlik shoh haqiqiy shoh faoliyatini ayni takrorlagan. Farqi shundaki, bu shoh ham, uning mulozimlari ham kulgili qiyofalarda gavdalanadilar. Bunday vazifalarni san’atkorlar, o‘yin va kulgi ahli bajargan. Xullas, bir kunlik shoh kulgili qiyofadagi yo‘ldoshlari hamrohligida shahar aylangan, fuqorolarning arzi-dodini tinglagan, gunohkorlarni jazolagan, hatto ba’zan zindondagi mahbuslarni bo‘shatgan. Bir kunlik shohning faoliyati, arkoni davlati bilan dabdabali, ayni chog‘da kulgili yurishlari, amru farmonlari butun aholi tomonidan katta bir teatr tomoshasi sifatida zavq-shavq bilan qabul qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murodova M. Xalq ijodiyoti. Toshkent. O‘zbekiston, 2015
2. Қодиров М. Ўзбек халқ томоша санъати. Т., Ўқитувчи, 1981.
3. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Т., Ўқитувчи, 1990.

4. Амир Темур ва Темурийлар даврида маданият ва санъат: монография. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996.
5. Avdeyeva L. O‘zbek milliy raqs tarixidan. T., 2001.